

холисликни қарор топтириш уларнинг Ватанга, ўз халқига бўлган муҳаббатини янада жўштириш ва келажакка ишонч туйғусини оширишда катта омил бўлиб хизмат қилмоқда.

### **Иқтибослар/ Сноски/ References:**

1. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Алимова Д. “Ўзбекистон мустақиллигининг 15 йиллигида тарих фани”. “Ўзбекистон тарихи” илмий журнал, 2006 йил 4- сон.
3. Хайитов. 3 Тарихий хотира – ўзликни англаш асоси. Тафаккур журнали. 2010 й. 4– сон.
4. “Ўзбекистон тарихи” илмий журнали, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. 1999 йил 1- сон.

## **QO‘QON XONLIGIDA QOG‘OZGARLIK MADANIYATI: ARXIV HUJJATLARINING QO‘QON QOG‘OZIDA YURITILISHI**

*Begmatov Xurshid isanaliyevich*  
+998916970980

[begmatovxurshidbek508@gmail.com](mailto:begmatovxurshidbek508@gmail.com)  
<https://orcid.org/0009-0003-1227-9678>

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining I-1043 fondi – “Qo‘qon xonlari arxivi” hujjatlarining moddiy asosi, xususan ularning, asosan, Qo‘qon qog‘oziga yozilganligi masalasi tahlil qilingan. Arxiv hujjatlarining tarkibi, yozuv uslubi, qog‘oz turlari va hujjatshunoslik xususiyatlari o‘rganilib, Qo‘qon qog‘ozining xonlik ma‘muriy tizimidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot jarayonida arxiv materiallari, tarixiy manbalar va arxivshunoslikka oid ilmiy ishlardan foydalanildi. Natijada Qo‘qon qog‘ozi nafaqat hunarmandchilik

mahsuloti, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiy munosabatlar va madaniy hayotning muhim vositasi bo‘lganligi asoslab berildi.

**Kalit so‘zlar:** Qo‘qon xonligi, Qo‘qon qog‘ozi, arxiv hujjatlari, I-1043 fond, Xudoyorxon, daftar, patta, inoyatnoma, arxivshunoslik, manbashunoslik.

## **INTRODUCTION(Kirish)**

Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda arxiv hujjatlari muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan I-1043 fond[1.] – “Qo‘qon xonlari arxivi” xonlikning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotini yorituvchi noyob manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Ushbu arxiv hujjatlarining aksariyati XIX asrning ikkinchi yarmiga, xususan Xudoyorxon hukmronligi davriga tegishli bo‘lib, ular davlat boshqaruvi, soliq tizimi, harbiy ishlar, yer munosabatlari va saroy xarajatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir. Mavzuning dolzarbligi shundaki, arxiv hujjatlarining mazmuni bilan bir qatorda ularning moddiy asosi – ya’ni qaysi turdagi qog‘ozga yozilganligi ham tarixiy manba sifatida muhim hisoblanadi. “Qo‘qon xonlari arxivi” hujjatlarining asosiy qismi mahalliy ishlab chiqarilgan Qo‘qon qog‘oziga yozilgan bo‘lib, bu holat xonlikda qog‘ozgarlik hunarmandchiligi yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Tadqiqotning maqsadi – “Qo‘qon xonlari arxivi” hujjatlarining asosan Qo‘qon qog‘ozida yozilganligini arxiv materiallari asosida tahlil qilish, uning davlat idoralari faoliyatidagi ahamiyatini yoritish hamda Qo‘qon qog‘ozining tarixiy-manbashunoslik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

## **METHODS (Tadqiqot metodlari)**

Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, manbashunoslik va arxivshunoslik metodlaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining I-1043[2.] fondi materiallari xizmat qildi. Shuningdek, N.N.Pantusov, A.L.Troiskaya[3.], P.P.Ivanov hamda H.Bobobekov kabi tadqiqotchilarning arxivga oid ma’lumotlari tahlil qilindi. Hujjatlarni tahlil qilish jarayonida qog‘oz turlari, yozuv uslubi, hujjat shakllari; muhr va devonxona

yozuvlari; arxiv materiallarining tashqi tasviri kabi jihatlariga alohida e‘tibor qaratildi.

Shu bilan birga, arxiv hujjatlarida uchraydigan “daftar”, “patta”, “inoyatnoma”, “pattai-rasid” kabi hujjat turlarining Qo‘qon qog‘ozida yuritilganligi qiyosiy tahlil asosida o‘rganildi.

### **RESULTS (Natijalar)**

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Qo‘qon xonlari arxivi” hujjatlarining katta qismi mahalliy ishlab chiqarilgan Qo‘qon qog‘ozida yozilganligi aniqlandi. Arxiv hujjatlarida qog‘ozning ikki xil turi – rus qog‘oz va Qo‘qon qog‘oz uchrasa-da, asosiy hujjat aylanmasi mahalliy qog‘ozda amalga oshirilgan. Arxivda saqlanayotgan daftarlar, jami daftarlar, pattalar, inoyatnomalar, muboraknomalar, pattai-rasidlar, namgo‘y ro‘yxatlar, asosan, Qo‘qon qog‘ozida bitilgan bo‘lib, ular xonlik devonxonasida keng qo‘llanilgan. Hujjatlarning aksariyati nastaliq xat uslubida fors tilida yozilgan. Bu esa Qo‘qon xonligida fors tili rasmiy devonxona tili sifatida faol qo‘llanilganligini ko‘rsatadi. Biroq hujjatlarda o‘zbekcha iqtisodiy va ma‘muriy terminlar ham keng uchraydi. Arxiv materiallari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qo‘qon qog‘oz: davlat boshqaruvida, soliq tizimida, harbiy ta‘minotda, yer munosabatlarini qayd etishda, saroy hisobotlarida asosiy yozuv materiali sifatida xizmat qilgan. Xususan, daftarlarda, kirim-chiqim hisoblari, harbiylarga berilgan kiyim, kechaklar, yer maydonlari, tanobona va xiroj miqdorlari, saroy xarajatlari mufassal qayd etilgan. Bu esa Qo‘qon qog‘ozining davlat moliyaviy hujjatchiligida muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, arxiv hujjatlarida qozilar muhri, devonbegi qaydlari va mahalliy boshqaruv idoralarining yozuvlari saqlangan bo‘lib, ularning yaxshi holatda saqlanib qolishi Qo‘qon qog‘ozining sifat darajasi yuqori bo‘lganligini ham tasdiqlaydi.

### **DISCUSSION (Muhokama)**

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlanadi: Rossiya imperiyasi tomonidan Qo‘qon xonligi bosib olingach, arxivning katta qismi Sankt-Peterburgga olib ketilgan bo‘lsa-da, uning ayrim qismlari Farg‘ona viloyati ma‘muriy

boshqaruvida foydalanish uchun qoldirilgan. Bu esa Rossiya ma‘muriyati ham Qo‘qon xonligi devonxona tizimi va hujjatlarining amaliy ahamiyatini tan olganligini ko‘rsatadi. Demak, “Qo‘qon xonlari arxivi” nafaqat tarixiy manba, balki mustamlaka davri boshqaruvi uchun ham zarur ma‘lumotlar bazasi bo‘lib xizmat qilgan. Arxiv hujjatlarini o‘rganishdagi asosiy muammolardan biri – ularning katta qismi hali to‘liq tavsiflanmaganidir. Hujjatlarning ko‘pida sarlavhalar yo‘q, ayrimlarida sana yoki muallif ko‘rsatilmagan. Bu esa tadqiqotchidan yuqori paleografik tayyorgarlikni talab qiladi. Bundan tashqari, arab yozuvidagi nastaliq xatini o‘qish murakkabligi va fors tilini biluvchi mutaxassislarning kamligi sababli arxiv materiallarining katta qismi hali ilmiy muomalaga kiritilmagan.[4.5.6.]

Shu sababli, zamonaviy tadqiqotlarda raqamlashtirish, electron kataloglashtirish, paleografik transliteratsiya, matnlarni ilmiy sharhlash; sun‘iy intellekt asosida matnlarni o‘qish texnologiyalarini joriy qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Strategik nuqtai nazardan qaralganda, Qo‘qon qog‘oziga yozilgan arxiv hujjatlarini o‘rganish Markaziy Osiyodagi yozma madaniyat tarixini qayta tiklash imkonini beradi. Chunki ushbu hujjatlar orqali: hunarmandchilik, savdo, davlat boshqaruvi, soliq tizimi, harbiy tashkilot; madaniy marosimlar, diniy institutlar faoliyatini kompleks ravishda o‘rganish mumkin. Bundan tashqari, Qo‘qon qog‘ozi va unga yozilgan hujjatlar milliy moddiy-madaniy merosning muhim qismi sifatida xalqaro ilmiy hamjamiyat uchun ham katta qiziqish uyg‘otadi. Ayniqsa, qo‘lyozma madaniyati va Sharq qog‘ozgarlik an‘analari bo‘yicha olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlarda “Qo‘qon xonlari arxivi” muhim manba vazifasini bajarishi mumkin. Demak, “Qo‘qon xonlari arxivi” hujjatlarining Qo‘qon qog‘ozida yozilganligi masalasi oddiy texnik jihat emas, balki Qo‘qon xonligining iqtisodiy qudrati, ma‘muriy boshqaruv tizimi, hunarmandchilik taraqqiyoti va yozma madaniyati darajasini ko‘rsatib beruvchi muhim tarixiy hodisa hisoblanadi.

## **CONCLUSION (Xulosa)**

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining I-1043 fondi hisoblangan “Qo‘qon xonlari arxivi” nafaqat Qo‘qon xonligi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganishda, balki xonlikdagi hujjatchilik madaniyati, qog‘ozgarlik hunarmandchiligi va davlat boshqaruv tizimini tadqiq etishda ham muhim manba hisoblanadi. Arxiv hujjatlarining asosiy qismi mahalliy ishlab chiqarilgan Qo‘qon qog‘ozida yozilganligi Qo‘qon xonligida qog‘oz ishlab chiqarish sohasi yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bu esa xonlikning ichki iqtisodiy imkoniyatlari, hunarmandchilik an‘analari va ma‘muriy tizimi mustahkam bo‘lganligidan dalolat beradi.[7.]

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Qo‘qon qog‘ozi davlat devonxonasidagi asosiy yozuv materiali sifatida xizmat qilgan. Xususan, inoyatnoma, muboraknoma, patta, pattai-rasid, jami daftar va soliq daftarlari kabi muhim hujjatlarning aynan Qo‘qon qog‘ozida yuritilishi xonlikda hujjat aylanmasi tizimi shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu holat davlat boshqaruvida ichki resurslardan samarali foydalanilganligini anglatadi. Shu bilan birga, arxiv hujjatlarining ma‘lum qismi rus qog‘ozida yozilganligi XIX asrning ikkinchi yarmida tashqi iqtisodiy munosabatlar va Rossiya ta’siri kuchayib borganligini ham ko‘rsatadi. Arxiv hujjatlarining nastaliq xat uslubida, asosan fors tilida yozilganligi Qo‘qon xonligida fors-tojik devonxona an‘analari saqlanib qolganligini ko‘rsatsa, hujjatlarda o‘zbekcha iqtisodiy va ma‘muriy atamalarining uchrashi mahalliy boshqaruv muhiti va turkiy ma‘muriy an‘analarning ham muhim o‘rin tutganligini anglatadi. Bu esa Qo‘qon xonligi madaniy muhitining ko‘p qatlamli va sinkretik xususiyatga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi.

“Qo‘qon xonlari arxivi” hujjatlari orqali xonlikdagi yer munosabatlari, vaqf tizimi, soliq siyosati, harbiy ta‘minot, saroy xarajatlari, hunarmandchilik va savdo, qazilma boyliklardan foydalanish, aholiga tarqatilgan ehsonlar kabi masalalarni chuqur tadqiq etish imkoniyati mavjud.[8.9.] Ayniqsa, arxivdagi daftarlar va moliyaviy hujjatlar xonlik iqtisodiy tizimini statistik va qiyosiy tahlil qilish uchun muhim manba vazifasini bajaradi. Tadqiqot jarayonida yana bir muhim jihat

aniqlandiki, arxiv hujjatlarining yaxshi saqlanib qolganligi Qo‘qon qog‘ozining sifat darajasi yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu esa Qo‘qon qog‘ozining mustahkamligi, uzoq muddat saqlanish xususiyati va arxivbop material sifatida yuqori ahamiyatga ega bo‘lganligini anglatadi. Demak, Qo‘qon qog‘ozi nafaqat mahalliy ehtiyojni qondirgan, balki davlat boshqaruvi va madaniy hayotning muhim infratuzilmaviy vositasi sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, arxiv hujjatlaridan foydalanish darajasi hozirgi kunga qadar cheklanganligicha qolmoqda. Buning asosiy sabablari: hujjatlarning arab yozuvida bitilganligi, fors tilida yozilganligi, hujjatlarda sarlavha va aniq klassifikatsiyaning kamligi, mutaxassis-paleograflar yetishmasligi bilan bog‘liqdir. Shu sababli kelgusida Qo‘qon xonligi arxivlarini o‘rganish bo‘yicha maxsus ilmiy markazlar tashkil qilish, arxiv hujjatlarini raqamlashtirish, elektron kataloglar yaratish va fors tili hamda nastaliq xatini o‘qishga ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, [10.] Qo‘qon qog‘ozini moddiy madaniy meros sifatida kompleks o‘rganish zarur. Xususan: Qo‘qon qog‘ozining ishlab chiqarish texnologiyasi, uning xom ashyosi, kimyoviy tarkibi, saqlanish xususiyatlari, boshqa Sharq qog‘ozgarlik markazlari bilan qiyosiy tahlili kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Strategik nuqtai nazardan qaraganda, Qo‘qon qog‘ozi va “Qo‘qon xonlari arxivi” materiallarini o‘rganish O‘zbekistonning milliy arxiv merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish imkoniyatini ham yaratadi. Ushbu arxiv materiallari YUNESKOning “Memory of the World” dasturi doirasida tadqiq etilishi va xalqaro ilmiy loyihalarga jalb qilinishi mumkin. Bu esa nafaqat Qo‘qon xonligi tarixi, balki Markaziy Osiyodagi davlatchilik, hujjatchilik va qog‘ozgarlik madaniyatini jahon ilmiy jihatdan o‘z ta’sirini o‘tazgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar.**

1. ЎзР МДА. Фонд И-1. Канцелярия Туркестанского генерал-губернатора.
2. ЎзР МДА. Фонд И-19. Ферганское областное управление.
3. ЎзР МДА. Фонд И-36. Управление начальника города Ташкента.

5. ЎзР МДА. Фонд И-715. Туркестанский край сборник материалов для истории его завоевания.
6. ЎзР МДА. Фонд И-1043. Архив Кокандских ханов.
- 7.Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – М.: Наука, 1968. – 582 с.
8. Троицкая А.Л. Материалы по истории Кокандского ханства XIX в.: По материалам архива Кокандских ханов. – М.: Наука, 1969. – 154 с.
9. Федченко А.П. В Кокандском ханстве. – Спб., 1875. –160 с.
10. Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства. (феодалное хозяйство Худаярхана). – Т.: Фан, 1973. – 476 с.

**UDK:93/94**

**ORCID: 0009-0000-7737-624X**

## **“НАУЧНО-КУЛЬТУРНОЕ РАЗВИТИЕ УЗБЕКИСТАНА И АЗЕРБАЙДЖАНА В РАННЕРЕНЕССАНСНЫЙ ПЕРИОД (IX–XI ВВ.)**

*Исломов Абдулазиз Латиф угли  
магистрант Кокандского государственного  
университета специальности история  
e-mail: [abdulazizislomov742@gmail.com](mailto:abdulazizislomov742@gmail.com)  
Tel: +99891688883*

**Annotatsiya.** Maqolada hozirgi O‘zbekiston va Ozarbayjon hududlari o‘rtasidagi madaniy-ilmiy hamkorlik IX–XI asrlarda — musulmon Sharqining ilk Uyg‘onish davri sifatida tanilgan davrda ko‘rib chiqiladi. Unda buyuk olim va mutafakkirlarning hissasi, ta’lim va ilm-fan markazlarining rivoji, shuningdek, Buyuk ipak yo‘lining bilimlar tarqalishidagi o‘rni tahlil etiladi. Adabiy va me’moriy an’analardagi o‘xshashliklarga alohida e’tibor qaratilib, bu ikki mintaqaga o‘rtasidagi yaqin tarixiy-madaniy aloqalarni tasdiqlaydi. Ushbu merosning O‘zbekiston va